Akademiyada navbatdagi dissertatsiya işi himoyasi bölib ötdi

Özbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qiliş akademiyasi huzuridagi DSc.24/2026.31.01.Yu.01.02 raqamli Ilmiy kengaşning 2026 yil 5 noyabrdagi majlisida **Xalilov Şohruh Mirzo Boymurod oğlining** "12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika. Tezkor-qidiruv huquqi va sud ekspertizasi" ixtisosligi böyiça yuridik fanlar böyiça falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini oliş uçun **"Tergovçining protsessual maqomini takomillaştiriş masalalari"** mavzusidagi dissertatsiya işi himoyasi ötkazildi.

Tadqiqotning maqsadi tergovçining protsessual maqomini takomillaştirişga doir ilğor nazariy ğoyalar, yangi ilmiy ta'riflar, har tomonlama qiyoslangan taklif va tavsiyalar, asoslangan ilmiy xulosalar işlab çiqişdan iborat.

Tadqiqotning obyektini tergovçining protsessual maqomi, uning vakolatlarini amalga oşirişi hamda prokuror, tergov organi rahbari va sud bilan özaro munosabatlari jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlar taşkil etadi.

Tadqiqotning predmeti jinoyat-protsessual huquq nazariyasida tergovçining protsessual maqomini tartibga solişga oid ilmiy qaraşlar va ğoyalar, jinoyat-protsessual qonunçilik normalari, xalqaro huquq normalari hamda tergovçi faoliyatiga oid qonunosti hujjatlar, ularni huquqiy qöllaş amaliyoti, xorijiy davlatlar qonunçiligi tajribasi hamda yuridik adabiyotlardagi nazariy-konseptual yondaşuvlarni taşkil etadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tergovçining gumon qilinuvçiga, ayblanuvçiga nisbatan jinoiy ta'qibni amalga oşiriş bilan birga iş holatlarini har tomonlama, töliq va xolisona tekşiriş, şaxsning aybini tasdiqlovçi dalillar bilan bir qatorda uni oqlovçi, javobgarligini istisno qiluvçi yoki yengillaştiruvçi holatlarni aniqlaş, töplaş, tekşiriş va baholaş uçun zarur çoralarni köriş majburiyati uning vakolatlarini belgilovçi normada mustahkamlanişi asoslantirilgan;

Jinoyat-protsessual kodeksida töğridan-töğri nazarda tutilmagan hollarda tergovçidan asosiy protsessual qarorlarni prokuror, tergov organi rahbari yoki boşqa mansabdor şaxs bilan kelişişni talab qiliş, şuningdek uni tekşirilgan dalillar asosida şakllangan içki işonçiga zid protsessual qaror qabul qilişga majburlaş taqiqlanişi asoslantirilgan;

jinoyat işlari tergovçilar örtasida avtomatlaştirilgan axborot tizimida obyektiv mezonlar asosida taqsimlanişi, jinoyat işini bir tergovçidan boşqasiga ötkazişga faqat qonunda belgilangan asoslar mavjud bölganda, aniq faktik va huquqiy asoslar körsatilgan qaror bilan yöl qöyilişi, tergovçini iş yuritişdan çetlatiş esa Kodeks

talablari jiddiy yoxud takroran buzilganda asoslantirilgan qaror qabul qiliş orqali amalga oşirilişi asoslantirilgan;

tergov organi rahbari dastlabki tergov faoliyati ustidan protsessual rahbarlik va nazoratni amalga oşiruvçi mansabdor şaxs sifatida ta'riflanişi, "yuqori turuvçi tergov organi rahbari" tuşunçasi kiritilişi, rahbarning tergovçiga dalillarga baho beriş, jinoyatning huquqiy tavsifi, ayblovning hajmi va iş yakuni yuzasidan aniq natijaga erişiş haqida körsatma berişi taqiqlanişi hamda u jinoyat işini qözğatişni rad etiş töğrisidagi qonunga xilof yoki asossiz qarorni aniqlaganda asoslantirilgan protsessual xulosa tuzib, uni prokurorga kiritişi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jinoiy ta'qib tuşunçasi va uni amalga oşiruvçi subyektlarni belgilovçi Jinoyat-protsessual kodeksi (JPK)ning 34^1-moddasi loyihasi işlab çiqilgan;

tergovçining protsessual mustaqilligi kafolatlarini belgilovçi JPKning 36^1-moddasi loyihasi hamda prokuror körsatmasiga e'tirozni körib çiqiş muddati va tartibiga oid takliflar işlab çiqilgan;

tergovçi va tergov organi rahbariga nisbatan jinoyat işi qözğatişning maxsus tartibini belgilovçi JPKning 591^1-moddasi loyihasi işlab çiqilgan;

tergovçining protsessual mustaqilligi kafolatlariga rioya etilişi töğrisidagi murojaatni tergov sudyasi tomonidan körib çiqiş tartibini belgilovçi JPKning 358^1-moddasi loyihasi hamda 31^1-moddani töldirişga oid takliflar işlab çiqilgan;

tergovçi faoliyatini baholaşning natija-neytral modeli asosida idoraviy baholaş mezonlarini takomillaştiriş böyiça tavsiyalar işlab çiqilgan;

jinoyat işlarini avtomatlaştirilgan tarzda taqsimlaş tartibini belgilovçi Vazirlar Mahkamasi qarori hamda tergovçining protsessual faoliyati bilan boğliq jinoyatlarni kvalifikatsiya qilişga oid Oliy sud Plenumi tuşuntirişlari böyiça tavsiyalar işlab çiqilgan;

tergov organi rahbarining protsessual körsatmalarini elektron qayd kartoçkasida rasmiylaştiriş mexanizmi işlab çiqilgan.